

BERDAQ DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATGAN OMILLAR

Annotatsiya: Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, yurtimizda har tomonla o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ulug' ota-bobolarimizga yuksak ehtirom mamalkatimiz ichki siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Birinchi prezidentimiz aytganlaridek: "Tarixni bilmasdan turib, kelajakni ko'rib bo'lmaydi". Yoshlar, shu jumladan talabalar va o'quvchilar o'rtasida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ'ib qilish, ularning Vatanga bo'lgan mehrini oshirish maqsadida xalq dardini kuylagan shoirlar masalan Berdaq ijodi bilan ham tanishtirish juda foydali deb o'ylayman.

Kalit so'zlar: tarix, Berdaq, ijod, o'zbek va qoraqalpoq tili, metod.

KIRISH

Berdaqning "Xalq uchun" (2021) nomli kitobi E.Ochilov tarjimasiga nashr etildi. Kitobga Berdaqning ellik to'qqiz she'ri tarjimada kiritilgan. Tarjimon tarjima uchun shoirning eng sara, xalqimiz orasida juda ommalashib ketgan she'rlarini tanlab olgan. Mumtoz Sharq shoirlari she'rlarini tarjima qilishdagi tajribalarini qo'llab E.Ochilov ijodiy mehnat qilgani har bir she'r tarjimasida ko'rinib turadi.

ASOSIY QISM

Qoraqalpoq xalqining g'ururiga aylangan Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq hayoti to'g'risida bizgacha yetib kelgan asarlaridan juda ko'p xulosalar olishimiz mumkin. Berdaq hayoti haqidagi ma'lumotlar juda oz. Afsuski, shoirning tarjimai holi hozirgi kunimizgacha yetib kelmagan. Shoir haqidagi eng muhim ma'lumotlarni o'z asarlarida ko'ra olishimiz mumkin.

Istedodli shoir, mashhur baxshi, o'sha davrning boylari va boshqa amaldorlari tomonidan taqib ostiga olinar edi. Uning ajdodlari va o'zi ham kambag'al oilada tug'ilganini o'zining "Bilgaysiz" degan asarida yozgan.

Og'a beklar, yoshim o'rta,
Aytmagayman so'zni jo'rta,
Baxt izladim o'la-yo'rta,
O'ylab farqni bilgaysiz.
Og'a beklar, shoir bo'ldim,
Gul edim, sarg'aydim, soldiers,
Dunyoga kelib ne ko'rdim,
Ohu-zorimni bilgaysiz.

Berdaq o'z xalqining ziyolisi, bilimdon insoni bo'lishiga qaramasdan, o'sha davrda hech kim uni taqdirlamadi, ulug'lamadi, hattoki hurnatga ham ega bo'lmadi. Bu haqda u o'zining "Bo'lgan emas" asarida yozgan. Xullas buyuk shoirning taqdiri boylar,

oxunlar, mullalar bilan qarama qarshilikda o'tgan. Shoirning "Ahmoq podsho" degan dostonining bosh qismida ham o'z taqdiri haqida so'zlab bergan. Ushbu dostonida dushmanlari haqida ham yozgan. Shunday qilib, Berdaq ko'p asarlarda o'zining fikrlarini, qiyinchiliklarini ko'rsatgan. Hayotining oxirgi kunlarida Berdaq bir qizidan ayrildi. Qarilik chog'iga qaramasdan shoir asarlar yozishda davom ettiradi. Uning yaxshi asarlari "Ahmoq podsho", "Bo'lgan emas", "Bizlarga yordam ber" va boshqalari aynan shu yillarda yozilgan. Berdaqning ko'pgina asarlarida hayotimizning haqiqiy tomonlari ko'rsatilgan, Xiva xonligining hokimligi paytlari va yurtning rus imperiyasiga qarshi kurashish ham eslatilgan. U o'zining "Ber endi" degan she'rida quyidagilarni aytgan edi.

Berdimurot, so'zla so'zni,
Dushmaningga tikib ko'zni,
Isxondirgil chog'lab o'zni,
Va'da ber endi, ber endi.

Bu asarida shoir har bir aytgan so'zni nazarda tutish ehtiyotkorlik bilan bu zamonda yurishni aytgan, chunki har bir qadamingni ta'qib etganlar bor deb yozgan. Berdaq jasoratli va fahm-farosatli bo'lishga harakat qiladi, qayerda va kimga nina deyish kerakligini biladi.

Berdaq qoraqalpoq xalqining ulug' shoiri. Uning asarlarining tematikasi juda boy. Uning poeziyasida qoraqalpoq xalqining butun bir asr ichidagi ijtimoiy, siyosiy turmushning ochiq lavhasi gavdalanadi. Berdaq asarlarining asosiy mavzusi qoraqalpoq xalqining ijtimoiy hayoti, ayanchli og'ir turmushi kuylashga bag'ishlangan. U xaqning quvonchiga, qayg'usiga ham o'rtoq bo'lgan shuni kuylagan "sahroning bulbuli" edi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytsak, Berdaq asarlarining uzoq va yaqin yillardagi o'zbek tiliga tarjimalari, ularning mualliflari faoliyati misolida o'zbek va qoraqalpoq, qoraqalpoq va o'zbek adabiy aloqalari rivojlanib bordi, ikki adabiyot ham tarjima asarlari bilan boyib, ko'rkamlashib, rang-barang shakllarda, turfa g'oyalar va mazmun mohiyat negizida taraqqiy etdi. Bu an'ana kelajakda ham xuddi shunday davom etsa, adabiy aloqa va badiiy tarjima ishlari yanada jadallashtirilsa, adabiyotlarimiz yuksalishida tub burilishlar, yangilanishlar bo'lishiga aminmiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent-2000-yil
2. Tanglauli shig'armalari, Nokis 1956-yil
3. Tanlangan she'rlar 1958-yil T;1976
4. Qurboboyev B, Berdaq va o'zbek adabiyoti T;1986-y
5. Ma'naviyat yulduzlari-Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent-1999-

yl

6. И.Сагитов. Бердахтын творчествосты. Нукус. 1977.
7. Бердах. Танламалы шыгармалар жыгынагы. Нукус. 1977. 52-б.